


136. Rim raqamlari

arab raqamlari

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

rim raqamlari

I, V, X, L, C



1. Hozirgi kunda raqamlarning ikki turidan foydalaniladi: arab va rim raqamlari.

Arab raqamlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Rim raqamlari	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X

Amallarni bajaring.

$$I + IV = \square$$

$$V + V = \square$$

$$X + IX = \square$$

$$VII + III = \square$$

$$X - VI = \square$$

$$V - I = \square$$



2. Taqqoslang.

$$VIII \square X$$

$$IX \square X$$

$$VI \square IV$$

$$IX \square VI$$



3. O'nlik va yuzliklarni belgilash uchun biz ikki turdagi raqamlardan foydalanamiz: arab va rim raqamlari.

10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
X	XX	XXX	XL	L	LX	LXX	LXXX	XC	C

Hisoblashlarni bajaring.

$$XX + XL = \square$$

$$LX - XL = \square$$

$$XC - XXX = \square$$




4. Odatda, biz vaqt va sanani rim raqamlari bilan ifodalaymiz. Masalan, soat siferblatida ko'proq rim raqamlari yoziladi. Rasmda berilgan 3 ta soat qaysi vaqtlarni ko'rsatyapti?



5. Bir asr bu — 100 yil. Asrlar rim raqamlari bilan belgilanadi. Gaplarni o'qing va ularni bizlarga odat bo'lgan ko'rinishda yozing.
- Biz XXI (_____) asrda yashaymiz.
 - Qadimgi olim Galenning asarlaridan tibbiyot xodimlari XVII (_____) arsning oxirigacha foydalanganlar.
 - XI (_____) asrda yashagan Abu Ali ibn Sino eng mashhur olimlardan biridir.



6. a) Tenglik to'g'ri bo'lishi uchun bitta cho'pni oling.



- b) Tenglik to'g'ri bo'lishi uchun bitta cho'p qo'shing.

